

“KIMYOYI SAODAT” ASARIDA DIL TALQINI VA ASARDAGI ISLOMIY FAZILATLAR

A'zamova Gulasal

Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti 3-kurs talabasi

Murodova Mohinur

Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti 3-kurs talabasi

Anotatsia: *Sharq falsafasida Homid G'azzoliyning o'rni kattadir. Uning asarlari ko'p donishmandlarning e'tiborini jalb qilgan . Shunday asarlaridan biri «Kimyoyi saodat “bo'lib bu asar ruhlar va jonlar haqiqatiga bag'ishlangan. Maqolada asarning islom jamiyatidagi o'rni va asarning inson diliga bag'ishlangan qisimlari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *G'azzoliy, dil, Islom, nafs,din,dunyo.*

Muhammad Homid G'azzoliy sharq islom dunyosida mavjud tavhid, kalom, tafsir, hadis, ruhiy va tabiiy fanlar o'rtasidagi itilofni bartaraf qilib , uning o'zaro uyg'un rivojlanish yo'llarini tadbi qilgan.Din va fan bir biriga jipslashib mo'minni yuksaltirishini diniy va dunyoviy dalillab bergan

Imom G'azzoliy merosini o'rganish islom falsafasi tarixini yoritish, kalom ilmi,falsafa va tasavvuf orasidagi munosabatlarni yoritishda katta ahamiyatga ega.

Inson dili Allohning uyi demakdir kishi dilini nafaqat o'zgalar balki insonning o'zi ham vayron qilmasligi darkor . Dil insonning barcha amallaridan tasirlanadi, o'zgaradi. Inson dilibilangina Alloh bilan suhbatga kirishadi , inson jamiki hatta harakati bilan diliga ko'zgu tutadi. G'azzoliy tabiri bilan aytganda

“Dil – bu shaharning podshohi . Aql bu shahar podshohining vaziridir. Bu podshohning mazkur bo'lg'anlarga hojati bordir. Mamlakat ishi bular bilan saranjom bo'lg'ay”.

Yaniki inson dilini pok saqlamoq payida bo'lmog'i lozim.G'azzoliyning takidlashicha dil zohiriy badanning tasarrufida emas ilm va iroda ham badan tasarrufidan xoridir vaqtiki dil farmon qilsa barmoqlar harakatga kelur vaqtiki dilda gazab paydo bo'lsa yana andomning tomirlari qushoda bo'lur vaqtiki shahvat hohishi ko'ngilga yo'l topsa zavq- shavq nasimi ayshu ishrat olamini qiyomga keltirur.

“Kimyoyi saodat” asarida samo haqida fikr yuritilib uning ulamolar orasida samoning harom yoki halolligi borasida ixtiloflar mavjud bo'lib kimki uni man qilgan bo'lsa, zohir ahlidandirki u haq taoloning muhabbati shxs dilida qanday paydo bo'lishini anglamaydi deb aytib o'tadi.

Inson har bir qilmishi bilan yo dilini poklaydi yoki qoralaydi yaniki inson dili insonni boshqarib turadi kishi dilini tushunish anglab yetish qiyin gumon qilmag'ilki dil oynasi to uyqulanmaguncha va yo vafot etmaguncha ochilmas deydi G'azzoliy. Kishining dilini bilmog' also mumkin emas kishi dilida saqlagani Allohgagina ayon.

Dilini pok saqlagan inson kuni kelib baxtga erishadi albatta. Bunga " Kimyoyi saodat"da quydagicha ishora bor "Odam dili ibtidoi temirga o'xshadirkim aningdin oynai ravshan qilurlar . Agar oynani sof va ravshan tutsalar hamma olam aning ichida ko'rinur va agar oynaga zang va tiyra o'ltursa , hech numarsa aning ichida ko'runmas. Inson dili qadimiy temir kabi agar yaxshi saqlanmasa zanglaydi hira tortadi.

Inson jismida eng buyuk narsa dildir shubhasiz G'azzoliy dilni shunday ulug'laydi " odam dilikim farishtalar gavhari jinsidandur , aning ham but qudratlari bordurkim olam jismlarining ba'zisi dilga musaxxardurlar. Bularning olami xosi o'ziga xo olami har birining o'z dilidur.

Imom G'azzoliy islom falsafasiga doir ko'pgina asarlar yozgan. Uning "Diniy ilmlar tirilishi" "Faylasuflarning maqsadlari " , "Nurlar manbai" , " Tafsirlar gavhari" singari asarlari jahon faylasuflari etiborini hanuzgacha tortib kelmoqda.

Yozuvchi Mahkam Mahmud va tarixchi Abdulloh Umarzoa imom G'azzoliyning falsafaga doi asarini to'liq holda nashrga tayyorlaganlar. Bu asar sharqning madaniyati va falsafasini o'rganishda eng nodir hazinadir.

Imom G'azzoliy asarlaridan birida shunay hikoya keltiriladi. Bir guruh ko'rla yo'lni ko'rmay ko'zlar turgan joydan o'ta boshlaydilar va ular kimdir yo'limizga to'siqlar qo'yibdi deb shikoyat qiladilr. Aslida ko'r bo'lganliklari sababli yo'lini yo'qotgan edilar.

Hozirgi hayotimizda ham o'z qilmishlari uchun boshqalarni ayblaydiganlar topiladi.Suvdan quruq chiqish islom odoblariga zid ekanligini G'azzoliy o'z asarlari bir necha asarlar oldin yozganligi yuqoridagi hikoya ilan to'liq tanishib ciqilsa bilish mumkin.

Imom G'azzoliyning tassavvuf talimotiga, islom dini ravnaqiga qo'shgan hissasi juda katta.birgina "Kimyoi saodat" asarining o'zida inson ruhiyati uning bir umirlik sayohati davomia nimalarga e'tibor qaratishi lozimligi batafsil yozilgan.

Xulosa qilib aytganda G'azolliyning fikrlari hozirgi kunda ham islom tasavvuf olamida o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q va bu ilmning taraqiyotida yetarlicha hizmat qilib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. **Imom G'azzoliy "Kimyoyi saodat " asari**
2. **Intirnet malumotlari**
3. **Ziyo.uz**
4. **Asosan shaxsiy xulosalarg asoslandi.**

